

IJORCES

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF CONFERENCE SERIES ON EDUCATION
AND SOCIAL SCIENCES.**

**PUBLISHER: ÇORUM: OGERINT -INTERNATIONAL
ORGANIZATION CENTER OF ACADEMIC RESEARCH**

IJORCES

**International journal of conference series on education
and social sciences. (Online)**

July 2023

Science Editor: **Cetin Avcı**
(*Kadir Has University*)

Copyright © 2023

By Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

All rights reserved.

Available at ijorces.org

Published:

Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

ISSN 2717-7076

Bursa

Bursa, Turkey

Editorial Board Members

Prof. **Hakan Mete Dogan**, Tokat Gaziosmanpasha University, Turkey

Prof. **Afsun Sujayev**, Institute of Additive Chemistry of the ANAS, Azerbaijan

Prof. **Nadir Mammadli**, Azerbaijan Architecture and Construction University, Azerbaijan

Prof. **Munevver Sokmen**, Konya Food and Agriculture University, Turkey

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journals

Universal
Impact Factor



BAXODIR YO'LDOSHEVNING "DIYDOR" TEATR-STUDIYASIDAGI IJODIY FAOLIYATI

Nurmanova Barno Axmadjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Teatr san'ati" ixtisosligi tayanch doktoranti
O'zbekiston, Toshkent

Annotatsiya: Maqolada o'zbek teatr san'atiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan, "Diydor" teatr-studiyasiga ko'p yillar davomida rahbarlik qilib, ijodiy tajribalarni amalga oshirgan rejissor Baxodir Yo'ldoshevning ijodiy faoliyati, sahnalashtirgan spektakllari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: rejissor, teatr, aktyor, dramaturgiya, obraz, xarakter, kechinma, eksperiment, talqin.

CREATIVE ACTIVITY OF BAKHODIR YOLDOSHEV IN "DIIDOR" THEATER STUDIO

Barno Nurmanova

Uzbek State Institute of Arts and Culture
Basic doctoral student in "Theater Arts"
Uzbekistan, Tashkent

Abstract: The article talks about the creative activity of the director Bakhodir Yoldoshev, who made a great contribution to Uzbek theater art, led the theater studio "Diydor" for many years and carried out creative experiments, and the plays he staged.

Keywords: director, theater, actor, dramaturgy, image, character, experience, experiment, interpretation.

O'z sohasining bilimdoni ezgu maqsadlar bilan "Diydor" teatr-studiyasining teatr olamida alohida o'rniga va nufuzga ega bo'lishi uchun studiyaning ichki tuzilishini, uning ijodiy yo'nalishini yangilab, XXI asr o'zbek teatrining poydevorini qo'ya boshladi. Bunga asos "Diydor"da yosh aktyor va rejissorlarning o'quv studiyasi tashkil qilinganligida edi. "Bahodir Yo'ldoshev ijodiy ustaxonasi"ning ochilishi va tez orada professional aktyor va o'quvchi talabalari bilan maxsus loyihalar asosida o'quv spektakllarini yaratishi o'zbek teatr san'atidagi voqelikka aylandi. Sababi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Musiqali teatr aktyorligi" yo'nalishi bilan hamkorlikda 2013 yilda "Halima" va 2016 yilda "Maysaraning ishi" spektakllarini muvaffaqiyatli sahnalashtiradi. Bu muvaffaqiyatdan so'ng, rejissor teatr-studiyada jiddiy va tinimsiz izlanish teatr studiyaning shoriga aylandi. Teatr-studiyada sahnalashtirilgan "Uylanish", "Iltimos", "Oydin kechalar", "Oydinda yurgan odamlar", "Urush va tinchlik", "Nodirabegim", "Maysaraning ishi", "Egizaklar", "Yulduzli tunlar", "Arshin mol-olon" kabi spektakllar teatr studiya repertuarini birin-ketin egalladi. Natijada, Bahodir Yo'ldoshev sahnalashtirgan spektakllarni tomosha qilish, rejissor studiya aktyorlari bilan olib borayotgan mahorat darslarini kuzatish ijodiy jamoaga va tomoshabinlarga ma'naviy hamda ruhiy ozuqa bera boshladi.

Teatr-studiyada talabalarning har qanday fantaziya va tasavvurlari qo'llab quvvatlanadi. Bu har qanday studiyamavjudligining asosiy shartidir. "Diydor" teatr-studiyasining diplomiga ega bo'lgan yoshlarga - havaskor teatr tashkilotlarida hamda badiiy to'garak rahbari sifatida, yoshlarga san'atning sir sinoatlarini o'rgatish huquqi berildi.

"Diydor" teatr studiyasi 2010 yildan boshlab Qoraqalpog'iston respublikasi va barcha viloyat teatrlarining yosh aktyorlari, rejissyorlari, rassomlari, adabiy emakdoshlari hamda teatrlarning takliflariga asosan sahnalashtirish bo'limi rahbarlarini ham maxsus ijodiy loyiha maqsadli dasturlar asosida mahorat darslarini va amaliy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishni rejalashtirishdi. Tashkilotchi aktyorlik kasbiga to'xtalar ekan - "Aktyorlik - nihoyatda oson va shu bilan birga o'ta mashaqqatli kasb. Faqat bu sohaga qadam qo'ygan odam TEATR o'zi nima ekanligini anglab olishi kerak. Afsuski, buning uddasidan chiqadiganlar kam" [1, B.188.], - deydi Baxodir Yo'ldoshev.

Aslida teatr-studiyalarining boshqa teatrlardan farqi ham aynan uning eksperiment maydoni ekanligida. Xususan, "Diydor" teatr-studiyasi yilda bitta spektakl yaratishi yoki o'quv jarayoni bilan mashg'ul bo'lishi mumkin. Gap sonda emas, balki sifatda, spektaklning ko'ngildagidek chiqishida. Studiyada yillik ijodiy reja bor, lekin ular teatr talablaridan keskin farq qiladi. Rejadagi eksperimentni amalga oshirish orqaligina yangilikka erishish mumkinligini anglab yetgan "Diydor" ijodkorlari ilk qadamini professional aktyorlar talabalar bilan birgalikda yetakchi rollarni partnyor sifatida ijro etishdan boshladi. Bu yosh aktyor uchun professional ko'nikma va tajribaga ega bo'lish uchun qulay usuldir.

"Diydor" teatr-studiyasi eksperimentlar maydoni bo'lganligi sababli Bahodir Yo'ldoshev bu tushuncha ma'nosiga alohida to'xtalib - "Gap shundaki, mana shu so'zdan nihoyatda ko'p odam foydalanyapti. Spektakl yaxshi chiqmasa, kechirasiz, bu - eksperiment, deb qo'yadi. Eksperimentmi, eksperiment emasmi, asar tomoshabinga ta'sir qilishi shart. Eksperimentni amalga oshirishning o'zi nihoyatda og'ir. Buning uchun sizdan oldin o'tgan ijodkorning qaysi yo'ldan borgani, qanday usullardan foydalangani, qanaqa qiyinchiliklarni yengib o'tgani - mana shularning hammasini sinchiklab o'rganishingiz kerak. Bo'lmasa, bironta eksperimentni amalga oshirish qiyin..." [1, B.188.]. Bahodir Yo'ldoshevning fikricha - "Spektaklning zamonaviy bo'lishi, rejissyorning pyesani talqin qilishiga bog'liq. Agar yangicha talqin etilsa, hatto Gamlet ham hozirgi davr qahramoni bo'lishi mumkin". Aynan yangicha talqin etish ham bir eksperiment.

Jahon adabiyoti jurnalining 2013 yil, mart sonida jurnalist Yulduz Xoshimovaning B.Yo'ldoshev haqida "Hamza, ishq, olovli kulcha" nomli maqolasi chop etildi. Suhbatda Bahodir Yo'ldoshev shunday deydi - "...Eng yomon ko'rganim esa - spektakl premyerasi. Yaxshi ko'rgan odamingiz bilan xayrlashgandek bo'lasiz. Premyera kuni spektakl o'ladi! Spektakl sahnaga chiqqandan keyin uning katta qismi yo'qlikka ketadi. Umuman, natijaning o'zidan ko'ra unga qanday erishilgani muhimroq" [1, B.188.].

Bahodir Yo'ldoshevning deyarli barcha ijodiy ishlarida: spektaklning mavjud liniyasini boshqarib turadigan; rejissyor va muallifning mushtarak g'oyasini muvofiqlashtiradigan; qolganlarni ham o'zining ortidan ergashtiradigan aktyor - yetakchi o'rin egallaydi. Uning rejissurasida teatr san'atining turli oqim va yo'nalishlari o'zaro birlashtirilishi - sintezlanishi mukammal va mustaqil san'at asarining yaratilishiga asos bo'ldi.

"Diydor" teatr-studiyasida sahnalashtirilgan "Maysaraning ishi", "Nodirabegim", "Halima", "Yodim siniqlari" kabi spektakllarda ayollarning siymolari yaratilgan. Ularning qiyofalari aktrisalar tomonidan turlicha talqin qilingan. Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston xalq shoirasi - Zulfiya Isroilovaning betakror iste'dodi, Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'usini, oliyanob insoniy fazilatlarini yuksak pardalarda tarannum etgan yetuk badiiy asarlari, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyati bilan milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shgan ulkan hissasi bor.

"Diydor" teatr studiyasida Baxodir Yo'ldoshev tomonidan 2014 yilda sahnalashtirilgan "Yodim siniqlari" tomosha-kompozitsiyasi shoira Zulfiyaning ibratli umr yo'li, sermahsul ijodi, hijron iztiroblari asosida yaratilgan. Sahnada shoira Zulfiya siymosi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Gulbahor Yuldosheva ijrosida shoira ijodiy xazinasi, she'riy javohirlaridan foydalanib, mahorat bilan talqin etilgan. "Yodim siniqlari"



spektaklini tamosha qilar ekanmiz, Zulfiya o'z she'riyati orqali ibratli bir maktab yaratib ketganligini guvohi bo'lamiz. Shoira - hayotning, ijodning barcha issiq-sovug'ini ko'rgan, qanchalar fojeaviy, qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, kechirgan umridan nolimaganligi, matonat ila Sharq ayoliga xos oddiy insoniy xulosa chiqarganligini bilamiz.

Mashhur shoira haqidagi ushbu kompozitsiyasini rejissyor - "Yodim siniqlari" deb nomlaydi va Zulfiyaning she'rlari orqali xalqning barcha jabr-u-sitamalarini ochib berishi shoiraning shon-shuhrat, xalq e'tirofi, e'zosi kabi totli lahzalarni boshdan kechirgan irodali ayolning dramatik taqdirini ham ko'rsatib beradi.

Sharqda ayol yerdagi barcha go'zalliklar bunyodkori deb ulug'lanadi. Shuning uchun, barcha mashhur yozuvchi va mashshoqlarning ilhom parisi - ona yoki ayol. Zero, aynan ayol birinchi navbatda bizga hayotni in'om etadi va o'zining mehribonligi, nafosati va g'amxo'rliqi bilan hayotga muhabbatni tarbiyalaydi, og'ir damlarda hamisha yordamga keladi, maslahat beradi, yo'l ko'rsatadi. Ayol nozik va ojiz ko'ringani bilan kerak bo'lganda kelajak uchun qadrligi bo'lgan barcha narsani himoya qila oladi.

Turmush o'rtog'i, shoir Hamid Olimjondan erta ayrilgan Zulfiya yurtimizning ziyoli va fidoyi ayollaridan biri edi. "Yodim siniqlari" kompozitsiyasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Gulbahor Yo'ldosheva bilan birga "Diydor" teatr-studiyasining yosh aktyorlari ham ishtirok etadi.

Sahna dekoratsiyasi ko'p narsalardan tomoshabinni voqif qilib, sahnadagi muhitga kirishga yordam beradi. Ular orasida qadimiy yog'och kursiga taxlangan bir dasta kitob, kerosin lampa, suratlar, dutor, eski chopon bor. Sahna yuqorisida esa, daraxtning yalang'och shoxlari osilib turibdi. Ular qahramon xotirasini uyg'otib, marhumlarni yodga olishga turtki bo'ladi.

Spektakl-kompozitsiya shoira Zulfiyaning turli davrlarda yozgan she'rlaridan tuzilgan bo'lib, tomoshabinlar ko'z o'ngida - qahramonning bolaligi, o'smirligi hamda kamolotga yetgan davri jonlanadi. Voqealar rivojida shoiraning zahmatkash taqdiri namoyon bo'ladi. Muallifning she'riy asarlarida aks etgan hayot manzaralari - aktrisaning mahorati, kuchli ijrosi bilan yanada yorqinlashadi. Aktrisaning ijrodagi ehtirosi, lirik ohangdagi dardi tomoshabinlarni sahnada kechayotgan voqea-hodisalar bilan birga yashashga undaydi. Shoira she'rlarini qalbiga jo qilgan aktrisa irodali ayolning harakatdagi qiyofasiga aylanadi. Aniq topilgan detallarda, ishoralarda, harakatlarda davr muhiti paydo bo'ladi. Shoiraning hayotni oqilona tushunishga asoslangan - baxt, taxt, quvonch, g'am-tashvish, orzu-umid haqidagi fikrlari tomoshabinga singib boraveradi. Natijada, voqealar xuddi tomoshabin bilan yuzma-yuz kechayotgan suhbatdek, shoira o'z taqdirini ochiq-oydin, sodda va samimiy hikoya qiladi.

Aktrisa G.Yo'ldosheva sahnada mag'rur, uyatchan qiyofada Zulfiya she'rini o'qir ekan, xotirasida ota-onasi, tog'asi, yaqinlari jonlana boshlaydi. Spektaklning so'nggi daqiqasigacha aktrisada hamda Zulfiya hayolida jonlangan qiyofalarda ham sokinlik kuzatiladi. Bu jarayon tomoshabinlarda - go'yo shoira ularning ro'parasida jonlangandek taassurot uyg'otadi. Uzoq izlanishlar natijasi bo'lgan bu spektakl tarix zarvaraqlarida qoldi.

"Rejissyorlik sohasida qirq yilga yaqin vaqt mobaynida faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lsam, shu davr ichida o'zimni o'ylantirgan, orom bermagan savollarga ma'lum ma'noda javob topdim. Hozirgi kunda ish tajribalarimga asoslangan o'z fikrim borligi, bu fikrlar tizimini shogirdlarimga o'rgata olganim, qog'ozga tushira borayotganim hayotimning mazmunidir. Hali oldinda qiladigan ishlarim ko'p,. Nasib qilsa teatr-studiya ijodiy maktabida yaratilayotgan qator spektakllarni keng ommaga ko'rsatish rejalarim bor. Men bilan hamfikir shogirdlarim ko'payib, ularning sifati yaxshilanib borayotganidan baxtiyorman", [2.]. - deydi Bahodir Yo'ldoshev "Diydor"dagi ilk faoliyatini eslab.

Yosh iste'dod egasi N.Narziyeva ijrosidagi ona obrazi xotirjamlik, sokinlikni ifodalasa, ota obrazini ijro etgan yosh aktyor - R.Xaydarov bir nuqtaga tikilgancha jim turadi, bir

og'iz so'z demaydi, sahnada aktyorning nigohlarigina so'zlaydi. Aktrisa N.Safoyeva talqin etgan kelin obrazi spektaklda o'z taqdiriga tan berish ramzi sifatida gavdalantirilgan. Aktyor I.Arabov - Zulfiyaning eng yaqin va ishonchli odami turmush o'rtog'i sifatida namoyon bo'ladi. Uning ijrosida Zulfiya - G.Yo'ldoshevaga nisbatan samimiyat, mehr va e'tiborni ko'ramiz. Xulosa shuki, "Yodim siniqlari" spektakli o'zining sharqona ibrat namunasi bilan millatimizning mo'tabar ayoli siymosini yosh avlod vakillari uchun tom ma'nodagi tarbiya manbai sifatida namoyish qildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1.Hoshimova Y. Xamza, ishq, olovli kulcha. -Toshkent: // Jahon adabiyoti, 2013. mart soni. 188-b.

2.Yo'ldoshev B. Rejissyorlik - hayotim mazmuni. -Toshkent: // Teatr, 2003. 3-mart.

ELSEVIER



SSRN
SOCIETY FOR
SCIENTIFIC RESEARCH
NETWORK

Universal
Impact Factor